Uchunchi kurslarda – **O'zbekistonda sovet mustabid tuzumining inqirozga yuz tutushi, O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi, Vatanimiz tarixining milliy mustaqil taraqqiyot davri – (1985-2012-yillar) – 188 soat.**

Mazkur o'quv dasturi akademik litseylari o'quv rejalari asosida tuzildi. Jahon tarixi akademik litseylarning barcha bosqichlarida chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi.

Ushbu dastur O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan 2012-2013-o'quv yilidan boshlab, akademik litseylarning chuqurlshtirilgan guruhlarda tarix faniga ajratilgan soatlar taqsimotining ko'paytirilishi munosabati bilan ishlab chiqilgan

| № | FAN BO'LIMLARI VA MAVZULAR | Umumiy yuklama, soat | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Dars turi bo'yicha soatlar taqsimoti | | | | | |
| | | Jami | Nariy (ma'ruza) | Amaliy | Labor. | Seminar | Kurs ishi |
| | **2-Kurs. 1918–yildan – XX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr** | **140** | **136** | **4** | | | |
| | **Dunyo Ikki jahon urushi oralig`ida 1918-1939-yillarda G`arb davlatlari** | | | | | | |
| 1 | Kirish. | | 2 | | | | |
| 2 | 1918 – 1939-yillarda xalqaro munosabatlar | | 4 | | | | |
| 3 | Rossiyada fevral va oktabr davlat to'ntarishlari va ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar | | 2 | | | | |
| 4 | 1918 – 1939-yillarda Sovet davlati | | 4 | | | | |
| 5 | 1918-1939-yillarda Germaniya | | 4 | | | | |
| 6 | 1918-1939-yillarda Fransiya | | 4 | | | | |
| 7 | 1918-1939-yillarda Angliya | | 4 | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8 | 1918-1939-yillarda AQSh | | 4 | | | | |
| 9 | 1918-1939-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari | | 8 | | | | |
| 10 | 1918-1939-yillarda Italiya | | 2 | | | | |
| 11 | 1918-1939-yillarda Ispaniya | | 2 | | | | |
| 12 | 1918-1939-yillarda Avstriya | | 2 | | | | |
| 13 | 1918-1939-yillarda Chexoslovakiya | | 2 | | | | |
| 14 | 1918-1939-yillarda Yugoslaviya | | 2 | | | | |
| 15 | 1918-1939-yillarda Polsha | | 2 | | | | |
| 16 | 1918-1939-yillarda Bolgariya | | 2 | | | | |
| 17 | 1918-1939-yillarda Ruminiya | | 2 | | | | |
| 18 | 1918-1939-yillarda Vengriya | | 2 | | | | |
| 19 | 1918 – 1939 yillarda Albaniya | | 2 | | | | |
| 20 | 1918 -1939-yillarda Gretsiya | | 2 | | | | |
| 21 | 1929–1933-yillarda Jahon iqtisodiy inqirozi, inqirozning yuzaga kelishi va uning oqibatlari | | 2 | | | | |
| | **Ikki jahon urushi oralig'ida Osiyo va Afrika davlatlari** | | | | | | |
| 22 | 1918-1939-yillarda Xitoy | | 2 | | | | |
| 23 | 1918-1939-yillarda Yaponiya | | 2 | | | | |
| 24 | 1918-1939-yillarda Hindiston | | 2 | | | | |
| 25 | 1918-1939-yillarda Turkiya | | 2 | | | | |
| 26 | 1918-1939-yillarda Afg`oniston | | 2 | | | | |
| 27 | 1918-1939-yillarda Eron | | 2 | | | | |
| 28 | 1918-1939-yillarda Koreya | | 2 | | | | |
| 29 | 1918-1939-yillarda Vetnam | | 2 | | | | |
| 30 | 1918-1939-yillarda Indoneziya | | 2 | | | | |
| 31 | 1918-1939-yillarda Arab mamlakatlari | | 10 | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 32 | 1918-1939-yillarda Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari | | 4 | | | | | |
| | **Ikkinchi Jahon Urushi (1939-1945-yillar)** | | | | | | | |
| 33 | Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Germaniyaning Sovet davlatiga hujumi | | 2 | | | | | |
| **34** | **Ikkinchi jahon urushining 1941–1944-yillardagi asosiy janglari** | | **4** | | | | | |
| 35 | Ikkinchi jahon urushi yillarida G`arb mamlakatlari | | 8 | | | | | |
| 36 | Ikkinchi jahon urushi yillarida Sharq davlatlari | | 4 | | | | | |
| 37 | Fashistlarga qarshi koalitsiyaning vujudga kelishi. Yevropada ikkinchi frontning ochilishi | | 4 | | | | | |
| 38 | Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Yevropaning fashizmdan ozod etilishi. Germaniyaning taslim bo’lishi | | 2 | | | | | |
| 39 | Ikkinchi jahon urushining tugashi, yakunlari va oqibatlari. (Xotira maydonida ko’chma dars) | | 2 | | | | | |
| | **Jahon mamlakatlari XX asrning ikkinchi yarmi XXI asrning boshlarida** | | | | | | | |
| | **XX asrning ikkinchi yarmi XXI asrning boshlarida xalqaro munosabatlar** | | | | | | | |
| 40 | Qurollanish poygasi va “sovuq urush” | | 2 | | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 41 | XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlarida Jahon tinchlik tarafdorlari harakati | | 2 | | | | |
| 42 | Dunyoning va Yevropaning ikkiga bo’linishi | | 2 | | | | |
| 43 | Yevropada birlashish (integratsiya) jarayoni. Yevropa Kengashi | | 2 | | | | |
| 44 | Mustamlaka tizimining parchalanishi, “kuch ishlatish” siyosatining emirilishi va uning ahamiyati | | 2 | | | | |
| 45 | Xalqaro keskinlikning yumshashi. “Sovuq urush”ning tugashi | | 2 | | | | |
| 46 | Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning tuzulishi, faoliyati va jahonda tutgan roli | | 2 | | | | |
| 47 | Ikkinchi jahon urushidan keyin Xalqaro ijtimoiy harakatlar | | 2 | | | | |
| 48 | O’zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda | | 2 | | | | |
| 49 | Umumiy takrorlash | | | 4 | | | |
| | **2-kurslar uchun jami** | **140** | **136** | **4** | | | |
| | | | | | | | |

Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari” mavzusi Akademik litseylarning xorijiy filologiya va ijtimoiy gumanitar fanlar yo`nalishlarida ya’ni tarix fani chuqurlashtirib o`qitiladigan guruhlarda 2-kursda o`rganiladi. Ushbu mavzuni o`rganishga Akademik litseylarning chuqurlashgan fanlar uchun ishlab chiqilgan Namunaviy o`quv dasturi bo`yicha 114 soat ajratilgan.

Ushbu mavzu Ikkinchi Jahon Urushi (1939-1945-yillar) bobida o`rganiladi. Ushbu bobni o`rganishga Akademik litseylarning chuqurlashgan fanlar uchun ishlab chiqilgan Namunaviy o`quv dasturida quiyidagi talablar qo`yilgan:

**Ikkinchi jahon urushining boshlanishi**

Ikkinchi jahon urushi arafasida Yevropa davlatlari o’rtasidagi munosabatlar. Muyunxen konferensiyasi . Sovet – german bitimi va uning mahfiy bandlari. Urush arafasidagi voqealar hamda ikkinchi jahon urushining boshlanishi sabablari va tavsifi. Germaniyaning g'arbga agressiyasi. Fransiyaning taslim bo'lishi.

Buyuk Britaniya mudofaasi. Urushga AQSHning munosabati. O'rta yer dengizi havzasi va Afrikada urush. Germaniyaning SSSRga qarshi urushga tayyorlanishi. Germaniyaning SSSRga hujumi. Yaponiyaning AQSHga hujumi. Sovet-Angliya va Sovet-Amerika shartnomalari hamda gitlerchilarga qarshi kaolitsiyaning tuzilishi. Afrika Osiyo va Tinch okeanida urush harakatlari.

Urushning borishida tub burilish masalasida turli qarashlar. Afrika jangi va Stalingrad jangining xalqaro ahamiyati. Fransiya milliy-ozodlik qo'mitasining tuzilishi. Yevropaning ozod qilingan mamlakatlarida fashistlarga qarshi kurashning boshlanishi. Fashist militaristlar blokining buzila boshlanishi.

Italiyaning taslim bo'lishi. Tehron konferensiyasi. Yevropada ikkinchi frontning ochilishi. «Reyx» inqirozining chuqurlashuvi. Germaniyaning Yevropadagi qo'g'irchoq hukumatlarining yemirilishi. Janubi-Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida milliy-ozodlik harakati. Qrim konferensiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi. Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lishi. Potsdam konferensiyasi. Uzoq Sharqdagi urush. Yaponiyaning so'zsiz taslim bo'lishi. Urushda O'zbekistonliklar ishtiroki. «Turkiston legioni»ning faoliyati. Urushning yakunlari va saboqlari. Urushning fojeali oqibatlari.

**Ikkinchi jahon urushi yillarida G`arb mamlakatlari**

Ikkinchi jahon urushi yillarida AQSH, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli, bosib olingan mamlakatlarda antifashistik harakatlar. Urush boshlanganda AQSHning betaraflik siyosati.

G'arbiy ishlab chiqarilishning kuchayishi. Germaniyada fashizm monopoliyasi jamiyatining mohiyati. Italiyaning urush davridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya va Albaniya kabi davlatlarning ikkinchi jahon urushi yillarida ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy hayoti. G'arb davlatlarida partizanlik harakatlarining kelib chiqishi va ularning faoliyati. Bolqon davlatlaridagi qarshilik ko'rsatish harakatlari va bu harakatlarda o'zbek jangchilarning ishtiroki. Yevropa davlatlarining sovet armiyasi tomonidan ozod etilishi. Ushbu davlatlarda demokratik kuchlarning hokimiyat tepasiga kelishi.

**Ikkinchi jahon urushi yillarida Sharq davlatlari**

Osiyo va Afrika mamlakatlarining ikkinchi jahon urushi yillarida ijtimoiy – iqtisodiy hayoti. Sharq davlatlarining avval Germaniya, songra Angliya, AQSh, Fransiya qo'shinlari tomonidan bosib olinishi. Afrikaning urush yillaridagi ahvoli. Janubiy – sharqiy Osiyo mamlakatlarini Yaponiya tomonidan bosib olinishi. Umumiy takrorlash[11]

## 1.2. Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari" mavzusining darsliklarda yoritilishi.

Akademik litseylarning tarix fani chuqurlashtirib o`qitiladigan ijtimoiy gumanitar va xorijiy filologiya yo`nalishlari uchun bugungi kunda maxsus darsliklar yozilmagan. Shuning uchun ham o`qituvchilar dars berish jarayonida mustaqil izlanib, turli manbalardan foydalanilgan holda darslarga tayyorgarlik ko`rishlari talab etiladi. Lekin shunday bo`lsa ham, ushbu va boshqa mavzularni o`qitishda bugungi kunda G.Hidoyatovning 2004 yilda chop etilgan[12] 10 sinf o`quvchilari uchun Jahon tarixi darsligi va 2013 yilda chop etilgan M.Lafasovning Akademik litsey va KHKlar uchun mo`ljallangan Jahon tarixi darsliklari tayanch manba sifatida foydalaniladi.

[11] Jahon tarixi fanidan Namunaviy o`quv dasturi T. 2012 45-46b.

[12] Hidoyatov G. Jahon tarixi:Eng yangi davr. Birinchi qism.(1914-1945-yillar): 10-sinf o`quvchilari uchun

M.Lafasovning Akademik litsey va KHKlar uchun mo`ljallangan Jahon tarixi darsligida ushbu masala alohida mavzu sifatida yoritilmaganligi sababli biz quyida G.Hidoyatovning 2004 yilda chop etilgan 10 sinf o`quvchilari uchun Jahon tarixi darsligida ”Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari” mavzusining yoritilishini keltirishni lozim topdik.

IKKINCHI JAHON URUSHINING 1941-1944-YILLARDAGI ASOSIY JANGLARI

Urush boshlangan damdan AQSh Angliyaga bor imkoniyatlari bilan yordam bera boshladi. Gitlerning AQShga urush e`lon qilishi uchun barcha asoslari bor edi, biroq u bu mamlakatning urushga ochiq qo`shilishidan cho`chib, bundan o`zini tiydi. Agar Tinch okeanida urush boshlanmasa, AQSh hukumati Yevropadagi urushga qo`shilishga yetarli asos topmasligi mumkin edi. Yaponiya ,Germaniya va Italiya bilan ittifoqqa qo`shildi va Fransiyaning zaiflashganidan foydalanib Hindixitoyga bostirib kirdi. Shu bilan birga u Xitoyda ham urushni davom ettirdi va Malayziyaning kauchuk plantatsiyalari ustidan nazorat o`rnatish maqsadida bu mamlakatni bosib olish rejasini tuza boshladi.

AQSh Yaponiyaning bu tadbirlarini bosiqlik bilan kuzatdi, chunki u yaponlarning Janubi-Sharqiy Osiyo va Indoneziyaga hujum qilishlarini istamasdi. Yaponiyaning 1941-yil iyulida Hindixitoyni bosib olishi AQSh siyosatiga o`zgartish kiritdi. AQSh yapon aktivlarini muzlatib, Yaponiyani neft manbalaridan ajratib qo`ydi; ingliz va gollandlar ham shunday ish tutdilar. Yaponiya Indoneziya nefti hamda Malayziya kauchugi va qalayisiz urushni davom ettira olmasdi.

Yaponiya vakillari Vashingtonda muzokaralar olib borishayotgan bir paytda, **1941-yil 7-dekabrda,** yakshanba kuni ertalab yaponlar AQShning *Pirl-Xarbor* (Gavay orollari)dagi bosh harbiy-dengiz bazasiga havo hujumi uyushtirdilar. Amerikaliklar g`aflatda qoldilar. Yapon aviatsiyasi ikki soat davomida ko`rfazni va sohildagi qurilmalarni bombardimon qildi. Natijada 8 Unkordan 4 tasi

cho`ktirib yuborildi, 18 ta harbiy kema ishdan chiqdi, 188 ta samolyot yo`q qilindi, 128 ta samolyot esa shikastlandi, 3000 harbiy xizmatchi o`ldirildi.

---

darslik.-T.:”Sharq”. 2004.-416 b.

**8-dekabrda** AQSh Yaponiyaga urush e`lon qildi. 11 dekabrda esa Yaponiyaning ittifoqchilari bo`lgan Italiya va Germaniya AQShga urush e`lon qildi. Tinch okeanida ham urush boshlandi.

AQSh urushga tayyor emasdi. Garchi 1940-yilda AQShda umumiy harbiy majburiyat joriy etilgan bo`lsa-da, armiya kam sonli, uquvsiz, yaxshi ta`minlanmagan edi. AQSh sanoati hali harbiy yo`nalishga o`tkazilmagandi. Yaponlar AQSh flotining zaifligidan foydalanib, tezda muvaffaqiyat qozondilar.

Yaponlarning urushning dastlabki bosqichidagi bosh vazifasi Janubi-Sharqiy Osiyoni Angliyadan kesib qo`yish edi, shu sababli asosiy zarba Angliyaning Yevropadan Tinch okeani tomon barcha dengiz yo`llarini nazorat qiluvchi kuchli harbiy-dengiz bazasi sanalgan Singapurga berildi. Pirl-Xarbor bilan bir kunda yapon aviatsiyasi Singapurga ham hujum qilib, undan 200 km narida joylashgan Kota Baraga desant tashladi. Yaponlar shiddatli hujumlar qilib, ikki oy deganda Singapurga kirdilar. 1942-yil 15-fevralda Singapur deyarli jangsiz taslim bo`ldi. Kuchli istehkom va qurol-aslahaga ega bo`lgan qudratli ingliz garnizoni urush- siz oq bayroq ko`tardi. 100 ming ingliz askari asir olindi, yaponlar 740 to`p, 2500 pulemyot va 200 tankni qo`lga ki ritdilar.

Singapurning tor-mor qilinishi Tinch okeanidagi butun mudofaa tizimining barbod bo`lishiga olib keldi. **1942-yil mayiga** kelib Yaponiya Malayziya, Indoneziya, Yangi Gvineya, Birma, Filippin, Gonkong, Guam, Sulaymon orollari - jami 400 mln. aholi yashaydigan hududni bosib oldi. Hindiston va Avstraliyaga real xavf tug`ildi. AQSh halokat yoqasida edi. Biroq, fashistlarning sovet-german frontida 1942-yil yozida hujumga o`tishlari yapon hujumining strategik yo`nalishini o`zgartirdi. Stalingrad qo`lga olinishini kutib 1942-yil noyabrida eng yaxshi yapon diviziyalari Manjuriyaga tashlandi. Bu yerda yapon qo`shini artilleriyasining yarmi va tanklarning 2z3 qismi jamlandi. Bu yapon rahbariyatining xatosi bo`ldi. Shu damdan e`ti boran Tinch okeanidagi vaziyat o`zgarib bordi. AQSh tanaffusdan foydalanib qurolli kuchlarni to`play boshladi, aviatsiya va flotni qayta jihozladi. Yaponiya Tinch okeanida hujumdan mudofaaga o`tdi. AQSh tashabbusni qo`lga kiritib, uni urush oxirigacha boy bermadi.

**Stalingrad jangi** 1942-yil yozida Yevropada Ikkinchi jahon urushining asosiy voqealari sodir bo`lmoqda edi. Bu paytga kelib nemislar Sovet Ittifoqidagi barcha frontlarda yana hujumga o`tdilar, biroq Kavkaz tizmalarigacha yetib, Shimoliy Kavkazning neftga boy hududlari qo`lga olingan va Stalingradga chiqilgan Janubiy frontdan boshqa hech qayerda muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Stalingrad uchun jang olti oy, **1942-yil 17-iyuldan 1943-yil 3-fevralga** qadar davom etib, u Ikkinchi jahon urashida keskin burilish yasadi. Jangda fashistlar Germa niyasining besh armiyasi qurshovga olinib, tor-mor keltirildi. 1943-yil 2-fevralda nemis qo`shinlarining qur shovdagi gruppirovkasi to`liq tor-mor qilindi. Vermaxtning Stalingrad jangidagi umumiy  talafoti 1,5 mln. ga yaqin kishini tashkil qildi. 91 ming askar, 26 ming ofitser, 24 general 6-armiya qo`mondoni feldmarshal Paulyus boshchiligida qo`lga olindi. Bu Gitler Germaniyasining halokatga yuz tutganidan dalolat berardi. Germaniyada uch kunlik motam e`lon qilindi.

Stalingrad jangidan so`ng yana qator og`ir zarbalar berildi va ulardan so`ng Gitler Germaniyasi qayta o`nglanmadi. Bu jangdan so`ng urushdagi strategik tashabbus Qizil armiya qo`liga o`tdi.

Front G`arbga tomon beto`xtov siljiy boshladi. 1944-yil kuzida nemis qo`shinlari Sovet Ittifoqi hududidan quvib chiqarildi, urush Yevropaga ko`chdi. Sovet armiyasi gitlerchilar tomonidan bosib olingan Markaziy va Janubi- Sharqiy Yevropa mamlakatlari hududida hujumkor operatsiyalarni boshladi.

## SSSR hududlarining ozod qilinishi

**1943-yil 5-iyuIdan 23-avgustgacha** davom etgan Kursk jangidan maqsad Kursk bo`rtig`i hududida nemislarning hujumini barbod qilishdan iborat edi. 12-iyulda Proxorovka yaqinida ikki tomondan 1200 tank qatnashgan tanklar jangi bo`lib o`tdi. Uning natijasida dushman qo`shinlari chekina boshladi. Kursk jangida vermaxt 500 mingga yaqin odam yo`qotdi, 1,5 ming tank, 3,7 mingdan ortiq samolyot, 3 mingdan ortiq to`p yakson qilindi.

*Dnepr uchun jang* **1943-yil avgustdan dekabrgacha** davom etdi. Sovet qo`shinlariga «Markaz» qo`shinlar gruppirovkasi va «Janub» qo`shinlar gruppirovkasining asosiy kuchlari qarshi turdilar. Sovet qo`shinlari asosiy qismi

Dnepr qirg`oqlari bo`ylab o`tgan «Sharqiy g`ov» mudofaa marrasini barpo etdilar. Dnepr uchun jang davomida sovet qo`shinlari tomonidan Dneprdagi strategik platsdarm qo`lga kiritilib, 38 mingdan ortiq aholi punktlari, shu jumladan 160 shahar ozod qilindi.

**1944-yil 8-aprelda** Qrimni ozod qilish operatsiyasi boshlandi. 12 mayda Qrim ozod etildi.

Gitler Leningradni qo`lga olish bilan faqat strategik emas, siyosiy maqsadlarni ham amalga oshirishni ko`zlagan edi. *Leningrad mudofaasi* **1941-yil 10-iyuldan 1944-yU 9- avgustgacha** davom etdi. «Shimol» qo`shinlar gruppirovkasi (29 diviziya) oldiga Boltiqbo`yidagi sovet qo`shinlarini tor- mor keltirib, «Markaz» qo`shinlar gruppirovkasi qismlari bilan hamkorlikda Leningrad va Kronshtadtni qo`lga olish vazifasi qo`yilgan edi. **1941-yil 8-sentabrda** nemis qo`shinlari Leningradni quruqlikdan kesib qo`ydilar. Shahar qamalda qoldi. Faqat **1943-yil 18-yanvarda** sovet qo`shinlari qamalni yorib o`tdilar, 1944-yil yanvar-fevralida unga batamom barham berildi. 1944-yil 10-avgustda Leningrad jangi nihoyasiga yetdi.

1944-yil 23-iyundan 29-avgustgacha Belorussiyani ozod qilish operatsiyasi davom etdi. Bu operatsiya davomida «Markaz» qo`shinlar gruppirovkasining asosiy kuchlari qurshovga olindi va tor-mor keltirildi. Belorussiya to`liq, Litva va Latviyaning esa bir qismi ozod qilindi.

## G`arbiy Yevropadagi hujum

**1944-yil 20-iyulda** Gitler o`zining bosh qarorgohida majlis o`tkazayotgan paytda portlash sodir bo`ldi. Uning natijasida to`rt ofitser halok bo`ldi. Gitlerning o`zi hech qanday zarar ko`rmadi. Suiqasd vermaxt ofitserlari tomonidan uyushtirilgan bo`lib, bombani polkovnik Shtauffenberg qo`ygan edi. Gitler ulardan ayovsiz o`ch oldi, fitnaga aloqador 5 mingdan ortiq kishi otib tashlandi.

Vaqt SSSRning ittifoqchilari foydasiga ishlardi. AQSh 1942-yilga kelib ishlab chiqarishni harbiy tartibga o`tkazdi va bu tezda o`z natijasini berdi. Butun urush davomida AQSh Angliya va SSSRga 300 ming samolyot, 86 ming tank, 2,7 mln. to`p va pulemyot yetkazib berdi. Bu lend liz - AQSh kongressi 1941-yil fevralida qabul qilgan qonunga ko`ra amalga oshirildi. U Gitlerga qarshi koalitsiya bo`yicha

ittifoqchilarga qurol-aslaha, strategik xom ashyo, o`q-dori va oziq-ovqatlarni ijaraga yoki foizsiz qarz tartibida berishni ko`zda tutardi. Bu qonunga ko`ra AQSh Angliya va SSSRga urush davrida 50 mln. dollarlik mahsulot yetkazib berdi. AQShning ko`magi va o`z harbiy sanoati ishlab chiqarishini oshirgani ittifoqchilarga 1942-yildayoq harbiy texnika jihatidan fashistlar Germaniyasi ustidan ustunlikka erishish imkonini berdi. 1943-yilda AQSh sanoati bor kuchi bilan ishlardi. Yangi texnologiyalar va taktika Atlantika okeanidagi Germaniya suv osti flotini deyarli yo`q qilib tashlash imkonini berdi. Amerika texnikasining ulkan oqimi Yevropaga qarab yo`naldi.

**1942-yil noyabrda** Angliya va AQSh Jazoir va Marokash qirg`oqlariga desant tushirdi. 450 ga yaqin harbiy va trans port kemalari okean orqali AQShdan va Angliyadan odamlar va texnikani olib o`tib, ularni Kasablanka, Jazoir va Oran portlariga tushirdi. Vishi hukumati qo`mondonligi ostidagi Fransiya qo`shinlari hech qanday qarshilik ko`rsatmadi. Talafot deyarli bo`lmadi. General **D. Eyzenxauer** (1890-1969) qo`mondonligidagi Angliya-AQSh qo`shinlari Tunisga hujum boshladi.

Biroz oldin Aleksandriyadan 90 km naridagi Al- Alamayn shaharchasi yaqinida hal qiluvchi jang sodir

bo`lib, unda feldmarshal **B. Montgomeri** (1887-1976) qo`mondonligidagi ingliz qo`shinlari feldmarshal **Ervin Rommel** (1891-1944) qo`mondonligidagi Afrika korpusini tor-mor keltirdi. Stalingraddan so`ng bu Germaniya va Italiyaning Ikkinchi jahon urushidagi eng jiddiy mag`lubiyatlaridan biri edi. U 1942-yil 23-oktabrda boshlanib, 4 noyabrda tugadi. Rommelning 249 tankidan faqat 36 tasigina qoldi, u 400 to`p va bir necha ming avtomobil yo`qotdi. Inglizlar 20 ming nemis askarini asir oldilar. Bu jangdan so`ng inglizlar nemislarni 2,5 ming km davomida beto`xtov quvib bordilar. **1943-yil mayida** ingliz qo`shinlari va Angliya-AQSh ekspeditsiya korpusi Tunisda birlashib, Italiya-Germaniya qo`shinlarini yangidan mag`lubiyatga uchratdi. Shimoliy Afrika tozalandi va O`rta Yer dengizida to`liq ittifoqchilar nazorati o`rnatildi.

Angliya-AQSh qo`shinlari dushmanga og`ir mag`lubiyatlardan so`ng nafas rostlash imkonini bermay, **1943-yil iyul-avgustida** Sitsiliyaga desant tushirdilar. Italiyaliklar jiddiy qarshilik ko`rsatishmadi. Italiyada fashistlar diktaturasining inqirozi kuzatilardi. Mussolini ag`darib tashlandi. Marshal Badal`o boshchiligidagi yangi hukumat **1943- yil 3-sentabrda** yarash ahdini imzoladi va unga ko`ra Italiya qo`shinlari qarshilikni to`xtatib, taslim bo`ldi.

Mussolini tuzumini qutqarish niyatida Germaniya qo`shinlari Italiya markaziga qarab yo`naldi va Rimni ishg`ol qilib, Italiya harbiy qismlarini qurolsizlantirdi, mamlakatda shafqatsiz istilo tartibi o`rnatdi. Ittifoqchi qo`shinlar himoyasiga qochib o`tgan Badal`o hukumati **1943-yil 13-oktabrda** Germaniyaga urush e`lon qildi.

**1944-yil 6-iyunda** AQSh-Angliya qo`shinlari Fransiya shimoli Normandiyaga tushirildi. Bu ittifoqchilarning ikkinchi frontni ochish haqidagi eski va`dani bajarish borasidagi amaliy qadami edi. 24 iyulgacha ularning soni 1,5 mln. dan ortiq kishini tashkil etdi. Ittifoqchilar dushmandan shaxsiy tarkibi va tanklari soni jihatidan 3 baravar, samolyotlari soni jihatidan esa 60 baravar ustun bo`lib, havo va dengizda to`liq hukmronlik qilardilar. 15 avgustda AQSh va Fransiya qo`shilmalari Fransiya janubiga ham tushirildi. 25 avgustda fransuz qarshiligi qo`shinlari AQSh qo`mondonligi bilan kelishuvga ko`ra Parijga kirdilar va Fransiya poytaxti uzra milliy bayroq hilpiray boshladi.

Ikkinchi frontning ochilishi Ikkinchi jahon urushidagi muhim voqea bo`ldi. Germaniya endi Yevropada ikki frontda urush olib borishga majbur bo`lib, bu uning strategik imkoniyatlarini chegaralar edi. Havoda G`arbiy Yevropada AQSh va Angliya aviatsiyasi to`liq hukmronlik qilardi. Barcha yo`l va kommunikatsiyalar ittifoqchilar nazorati ostiga olingandi.

Germaniyani strategik bombardimon qilish hajmlari kengayib, unga Angliya-AQSh aviatsiyasining yirik kuchlari jalb qilina boshlandi. Kunduzi AQSh aviatsiyasi sanoat ob`ektlari, temir yo`llar, ko`priklar, suv osti kemalari bazalari, sintetik benzin va kauchuk ishlab chiqaruvchi korxonalarga havodan hujum uyushtirardi. Tunda Angliya aviatsiyasi asosan shaharlarni bombardimon qilib,

tinch aholini ruhiy tushkunlikka tushirishga urinardi. Germaniya xalqi fashistlarning avantyurasi evaziga katta haq to`ladi. Bombardimonlar natijasida Germaniya hududida joylashgan mudofaa korxonalarining katta qismi yakson qilindi, havo mudofaasi tizimi ishdan chiqarildi, nemis aviatsiyasi faol harakat qilishni to`xtatdi. Havo hujumlaridan ayniqsa tinch aholi katta zarar ko`rdi. 1945-yil bahoriga kelib Berlinning to`rtdan bir qismi vayron qilindi, 1,5 mln. aholi boshpanasiz qoldi. Fashist qo`shinlarining transport va ta`minot tizimi deyarli yakson qilindi va ishdan chiqarildi.

1943-yil boshida Tinch okeanidagi urushda burilish yasaldi. Yaponiyaning iqtisodiy ahvoli keskin zaiflashdi. Aholini oziq-ovqat bilan ta`minlash avval qisqardi, so`ng esa butunlay to`xtatildi. Mamlakatda ish tashlashlar bosh landi. Urushga qarshi kayfiyatlar ochiq izhor qilina boshlandi. Shu taxlit harbiy mag`lubiyatlar chuqur ichki inqiroz bilan uyg`unlashdi. Qishloqda dehqonlar bilan pomeshchiklar o`rtasida nizolar boshlandi. Mamlakatdagi siyosiy inqiroz hukumat almashuvida aks etdi. 1944-yil iyulda Tinch okeanida urush boshlagan Bosh vazir Todzening hukumati iste`foga chiqarildi, 1945-uil aprelda Yaponiya hukumati yana almashdi.

## II Bob. “Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari” mavzusini o`qitish metodlari

### 2.1. “Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari” mavzusining 2 soatlik dars ishlanmasi.

| | |
|---|---|
| **Mavzu** | “Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari |

**3.1. O`quv mashғulotining ta’lim texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| **O`quv soati: 2 soat** | ***O`quvchilar soni: 30*** **ta** |
| ***O`quv mashgulot turi va shakli*** | **Nazariy to`liq mashg`ulot.No``’ananviy dars** |
| ***O`quv mashg`ulot Rejasi*** | 1. 1941-yildagi asosiy janglar.<br>2. Urushda tub burilish yasalishi .Stalingrad jangi.<br>3. SSSR hududlarining ozod qilinishi<br>4. G`arbiy Yevropadagi urush harakatlari. |
| **O`quv mashg`ulotining maqsadi:**<br>**Ta’limiy:** Ikkinchi jahon urushining 1941-1944 yillardagi asosiy janglari va ushbu janglarning urushning borishiga va uning natijalariga ta’siri haqida o`quvchilarga atroflicha bilim, tushuncha berish.<br>**Tarbiyaviy:** , darsning tarbiyaviy maqsadi o`quvchilarga urushda g`oliblar bo`lmasligini , urush u nima maqsadda qilinmasin insonlar boshiga faqat kulfat keltirishini singdirishi lozim.<br>**Rivojlantiruvchi: Tinchlik, uni asrash har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni rivojlantirish.** | |

| | |
|---|---|
| *Pedagogik vazifalar:*<br>**- 1941 yildagi urush harakatlari , antifashistik koalitsiya,tub burilish, ikkinchi frontning ochilishi, SSSR hududlarining ozod etilishi, g`arbiy Yevropa davlatlaridagi urush harakatlari haqida o`quvchilarga tushuncha berish;**<br>**- O``quvchilarning ikkinchi jahon urushi va uning oqibatlari misolida tinchlikning oily ne'mat ekanligi va uni asrash har bir fuqaroning burchi ekanligi haqidagi tushunchalarini rivojlantirish;**<br>**- Ta'lim tizimi-intelektual salohiyatini oshirish, tarixiy va madaniy merosni boyitishning muhim omil ekanligi to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlash;**<br>**- Ajdodlarimizning urushdagi jasoratlariga, ularning vatan ozodligi yo`lidagi harakatlariga hurmat va ularga munosib bo`lish to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlash.** | *O`quv faoliyatining natijalari:*<br>**- Mavzu bo`yicha axborotli ma'ruza qilinadi;**<br>**- O`quvchilar1941 yildagi urush harakatlari , antifashistik koalitsiya,tub burilish, ikkinchi frontning ochilishi, SSSR hududlarining ozod etilishi, g`arbiy Yevropa davlatlaridagi urush harakatlari haqida bilib oladilar;**<br>**- Ta'lim tizimi-intelektual salohiyatini oshirish, tarixiy va madaniy merosni boyitishning muhim omili ekanligi haqida gapiriladi;**<br>**- Ajdodlarimizning urushdagi jasoratlariga, ularning vatan ozodligi yo`lidagi harakatlariga hurmat va ularga munosib bo`lish har bir fuqaroning burchi ekanligini va uning mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyatiga misollar keltirilib tushuntiriladi.** |
| *Oqitish metodlari* | **Davra suhbati, namoyish, bahs-munozara** |
| *O`qitish vositalri* | **O`quv materiali, slaydlar, kompyuter tizimi** |
| *O`quv faoliyatini tashkil etish metodlari* | **Jamoaviy, kichik guruhlarda ishlash** |
| *O`qitishning shart-sharoitlari* | **Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo`ljallangan auditoriya** |

| | |
|---|---|
| ***O`zaro suhbatning usul va vositalari*** | **Oғzaki nazorat: savol-javob** |

**“Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari”mavzusi bo`yicha o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi.**

| ***Faoliyat bosqishlari*** | ***Faoliyat mazmuni*** | |
|---|---|---|
| | *O`qituvchi* | *O`quvchilar* |
| **I Kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1.Darsning tashkiliy asosi, mavzusi, maqsadi, kutilajak natijalarini e’lon qiladi. Mashg`ulotni o`tkazish shaklini tushuntiradi. | Diqqat qiladilar |
| **II.Asosiy bosqich(60 daqiqa)** | 2.1. O`tgan “Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Germaniyaning Sovet davlatiga hujumi” mavzusi bo`yicha o`quvchilar bilimini baholash uchun ularni 3 guruhga bo`ladi va guruhlarga topshiriq beradi. Ularning ishini kuzatadi, baholaydi.<br>2.2. Yangi mavzuni e`lon qiladi va vizual materiallardan foydalanib mavzu axborotli ma`ruza shaklida o`quvchilarga yetkaziladi.<br>2.3Yangi mavzuni mustahlkamlash uchun guruhlarga topshiriqlar beradi. Ularning ishini baholaydi<br>2.4 Yangi mavzu bo`yicha guruhlarga kichik taqdimot tayyorlash uchun mavzular beradi va guruhlar ishini baholaydi.<br>2.5 Mavzuni umumlashtiradi va mavzu bo`yicha talabalar savollariga javiob beradi. | Diqqat qiladilar. Kichik guruhlarga bo`linadilar. Topshiriqlar ni bajaradilar<br>Fikr almashadilar<br>Diqqat qiladilar<br><br>Kichik guruhlarda jamoa bo`lib ishlaydilar.<br>Taqdimot tayyorlay dilar<br>Boshqa guruhdagilarning fikrlarini tinglaydilar<br>Mavzu bo`yicha o`zlarini |

| | | |
|---|---|---|
| | | qiziqtirgan savollarni so`raydilar. |
| **III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)** | 3.1. Guruhlarning umumiy natijalari e'lon qilinadi, g`olib guruh tabriklanadi.<br>3.2. Darsda faol qatnashgan talabalar baholanadi.<br>3.3Uyga vazifa beriladi. | G`olib guruhni tabriklaydilar.<br>Uyga vazifani yozib oladilar. |

I. Tashkiliy qism:

1. Salomlashiladi, yo`qlama jurnalga qayd dilinadi.
2. Darsda ishchi muhit yaratiladi.
3. Bugungi kunda yurtimizda 2-jahin urushi qatnashchilari va front orti mehnat fronti qatnashchilariga ko`rsatilayotgan e'tibor va qadr, "Xotira va qadrlash kuni"ning respublikamizda nishonlanishi va undan ko`zlangan maqsad haqida gapiriladi.
4. Darsning shiori e'lon qilinadi: Biz urushning har qanday shakli va ko`rinishiga qarshimiz!
5. Darsning mavzusi maqsadi, kutilajak natijalarini e'lon qiladi. Mashg`ulotni o`tkazish shaklini tushuntiradi.
6. O`quvchilar 3 ta guruhga bo`linadilar va o`z guruhlarini o`zbekistonlik 2-jahon urushi qahromonlari nomi bilan ataydilar. 1-guruh Sobir Rahimov, 2-guruh Zebo G`aniyeva, 3-guruh Ahmadjon Shukurov nomini oladi.

**II. Asosiy qism:**

**2.1. O`qituvchi o`tilgan mavzu bo`yicha guruhlarga topshiriqlar beradi**.

Sobir Rahimov guruhiga tushunchalar tahlili kartochkasini to`ldish:

| | |
|---|---|
| Zitskrig | |
| Barbarossa | |

| | |
|---|---|
| Dengiz sheri | |
| kapitulyatsiya | |
| Yangi tartib | |

Zebo G`aniyeva guruhiga sanalar ustida ishlash:

1. 1939-yil 3-sentabr-
2. 1940-yil 9-aprel-
3. 1940-yil 15-avgust-
4. 1914-yil 22-iyun-
5. 1940-yil may-

Anmadjon Shukurov guruhiga savollarga og`zaki javob berish:

1. Nima uchun Germaniya armiyasi Yevropaning ko`pgina mamlakatlari qisqa muddat ichida nisbatan oson bosib oldi?
2. 1940-yil Angliya hukumatida qanday o`zgarishlar sodir bo`ldi? Nima uchun?
3. Bosib olingan yerlarda Gitler qanday tartib o`rnatdi?
4. Urushning Yevropa va Osiyoga tomon kengayishining oldini olish mumkinmidi?
5. Fashistlar Germaniyasi bosib olingan yerlarda iqtisodiy, siyosat va madaniyat sohasida amalga oshirgan tadbirlarni sanab bering. Bundan ular qanday maqsadni ko`zladilar?

Guruhlarning javoblari tinglanadi, xatolar to`g`irlanadi va guruhlar ishi baholanadi.

## 2.2. Yangi mavzu doskaga yoziladi. “Ikkinchi jahon urushining 1941-1944 yillardagi asosiy janglari”.

Mavzu rejasi:

1.1941-yildagi urush harakatlari.

2. Urushda tub burilish yasalishi .Stalingrad jangi.

3. SSR hududlarining ozod qilinishi

4. G`arbiy Yevropadagi urush harakatlari.

Mavzu yuzasidan tayanch konspekt:

*1941-yil 7-dekabr* - Yaponiya tomonidan AQShning Gavay orollaridagi Pirl-Xarbor harbiy-dengiz bazalarining bombardimon qilinishi. Yaponiyaga urush e`lon qilinishi;

*1941-yil 11-dekabr* - Italiya va Germaniya AQShga urush e`lon qildi;

*1942-yil 15-fevral* - Yaponiya tomonidan Angliyaning Singapurdagi harbiy-dengiz bazasining bosib olinishi. Tinch okeanidagi mudofaa tizimining yakson etilishi;

*1942-yil* - Yaponiya tomonidan Malayziya, Indoneziya, Yangi Gvineya, Birma, Filippin, Gonkong va boshqa hududlarning bosib olinishi;

*1942-yil 23-oktabr - 4-noyabr* - Italiya-Germaniya qo`shinlarining AI-Alamayn (Misr)dagi mag`lubiyati, strategik tashabbusning Angliya armiyasiga o`tishi;

*1942-yil 17-iyul* - 1943-yil 2-fevral - Stalingrad jangi - Ikkinchi jahon urushidagi burilish bosqichi;

*1943-yil 5-iyul - 23-avgust* - Kursk jangi;

*1943-yil avgust-dekabr* - Dnepr uchun jang;

*1944-yil 20-iyul* - Gitlerga qarshi suiqasd;

*1944-yil may* - Shimoliy Afrikaning Italiya-Germaniya qo`shinlaridan ozod qilinishi;

*1943-yil 3-sentabr* - Italiyaning taslim bo`lishi nemis- fashist blokini tanazzulga mahkum qildi;

*1944-yil 6-iyun* - ikkinchi frontning ochilishi;

*1944-yil 10-avgust* - Leningrad qamaliga to`liq barham berildi.

Mavzu bo`yicha tarixiy hujjatlar:

***Hujjat***

**Nemis bosh shtabining 1941-yil 21-sentabrdagi buyrug`idan**

- avval biz Leningradni qamalda qoldiramiz va iloji bo`lsa, shaharni artilleriya va aviatsiya vositasida vayron qilamiz...

- terror va ochlik shaharda o`z ishini bajarganidan so`ng ayrim darvozalarni ochib, qurolsiz odamlarni chiqarib yuboramiz...

- bahorda biz shaharga bostirib kiramiz, barcha tirik qolganlarni Rossiya ichkarisiga ko`chiramiz yoki asir olamiz, Leningradni yer bilan bitta qilib tekislab tashlaymiz va Neva shimolidagi hududni Finlyandiyaga beramiz.

**Germaniya harbiy-dengiz shtabi boshlig`ining 1941-yiI 29- sentabrdagi buyrug`idan**

O`ta maxfiy

Fyurer Sankt-Peterburgni yer yuzidan supurib tashlashga qaror qildi. Sovet Rossiyasi yo`q qilinganidan so`ng bu katta shaharning mavjudligi hech qanday qiziqish uyg`otmaydi...

Shaharga yaqinlashib, uni turli kalibrdagi artilleriya va surunkali havo hujumlari yordamida yakson qilish tavsiya etiladi...

Aholi hayoti va uning ta`minoti muammosi biz hal qilishimiz lozim va mumkin bo`lgan muammo hisoblanmaydi. Bu urushda... biz ushbu katta shahar aholisining bir qismini ham saqlab qolishdan manfaatdor emasmiz.

...Naqadar hayratomuz tuyulmasin, biroq ma`naviy hayot Leningradda bir lahza ham to`xtamadi. Qirq birinchi yil dekabrida Ermitajda akademik 1. A. Orbeli tashabbusi bilan buyuk o`zbek shoiri Ahsher Navoiyning besh yuz yillik yubileyi tantanali nishonlandi.

Ma’ruzaning to`liq matni 1.2 paragrafda berilgan.

**2.3. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun guruhlarga savollar beriladi va qaysi guruh savollarga tez va to`g`ri javob bersa o`sha guruh g`olib bo`ladi?**

1.Qaysi voqeadan keyin Amerika Qo`shma Shtatlari Yaponiyaga urush e`lon qildi?

2. Singapurning bosib olinishi Yaponiya uchun qanday ahamiyatga ega edi?

3. Singapurning bosib olinishi Tinch okeanidagi kuchlar nisbatiga qanday ta’sir qildi?

4. Ikkinchi jahon urushi tarixida Moskva  ostonasidagi, Stalingrad va kursk janglari qanday ahamiyatga ega?

5. Xaritadan ikkinchi jahon urushining asosiy janglari bo`lib o`tgan joylarni ko`rsating?

6. Angliya-Amerika Qo`shma Shtatlari qo`shinlari qatnashgan asosiy harbiy janglarni sanab bering? Ularga baho bering va ularning ikkinchi  jahon urushidagi ahamiyatini ko`rsating?

7. Ikkinchi front qachon va qaysi voqeadan so’ng  ochildi?

8. Ikkinchi frontning ochilishi ikkinchi jahon urushining borishiga qanday ta’sir ko`rsatdi?

**2.4  Guruhlarga yangi mavzuni mustahkamlash uchun keying topshiriq;**

Sobir Rahimov guruhiga: SSSR hududlarining ozod etilishi mavzusida;

Zebo G`aniyeva guruhiga : Garbiy Yevropadagi urush harakatlari mavzusida:

Ahmadjon Shukurov guruhiga:

Urushning borishida tub burilish mavzusida kichik taqimot tayyorlash topshirig`i beriladi.Topshiriqning bajarilishiga 5 daqiqa, taqdimot uchun hat bir guruhga 3 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlarning ishi baholanadi.

**2.5.O`qituvchi mavzuni umumlashtiradi va talabalarning mavzu bo`yicha savollariga javob beradi.**

**III.  Yakuniy bosqich:**

3.1. Darsda g`olib chiqqan guruh tabriklanadi.

3.2. Darsda faol qatnashgan talabalarning baholari e’lon qilinadi va jurnalga qayd qilinadi.

3.3. Uyga vazifa mavzu yuzasidan guruhlar POWER POINT dasturida taqdimot tayyorlab kelishlari beriladi.

### 2.2. Jahon tarixini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Bugungi kunda tarix fanini o`qitishda ham yangi pedagogik texnologiyalar, oqitishning interaktiv usullarini qo`llash, darslarni an’anaviy, ma’ruza shaklida emas balki jonli, qiziqarli tarzda o`tish davr talabidir. Ayniqsa ziddiyatli,

murakkab davrni o`rganishda ta`limning yangi texnologiyalaridan, o`qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etiish dars samaradorligini bir necha marta oshiradi.

O`qitishning texnik vositalari ekran qo`llanmalar ya’ni televizor, kompyuter,vidioproektor, videofilmlar, slaydlar, , kinofilmlar, radio-teleeshittirishlar kiradi. O`qituvchi texnika vositalarining o`ziga xos o`quv qo`llanmasi ekanligini aytadi. Ammo texnik vositalar o`qitish jarayonida o`qituvchining o`rnini bosa olmaydi. Amaliyotda quyidagicha xolat yuz berishi mumkin, ya’ni bitta mavzudagi dars bo`yicha darslikda bezaklar, devoriy (tablitsa) jadvallar, doskaga sxematik suratlar ishlanishi mumkin, yana bundan boshqa diafilm, kinofilm va boshqa xillari ham bo`lishi mumkin. Masalan: Uyғonish davri madaniyati haqidagi darsda darslikdagi (rangli) bezaklar, davriy jadvallar, ”O`rta asr madaniyati tarixi bo`yicha albom”da, filmlar (XV asrning oxiri-XVII asrning boshidagi “Ғarbiy Evropa madaniyati”, ”Leonardo da Vinchi”, ”Muzeylardagi jahon san’ati durdonalari-9- bo`lim, Italyan uyғonish san’ati”) va boshqa radio, teleko`rsatuvlardan ham foydalanish mumkin. Albatta, hech bir darsda bularning hammasini foydalanish imkoniyati yo`q. Demak, nimani tanlash kerak, ular bilan ishlashni qanday tashkil qilish mumkin. Bu savollarga o`qituvchi o`qitish sharoitini va sinfning xususiyatlarini hisobga olib javob beradi. Dastavval bu qo`llanmalarning mazmundorligi, qulayliliga e’tibor berish kerak. Masalan, italyan Uyғonish davrining san’ati bo`yicha darsda ko`proq rangli diapozitivlardan yoki diafilmlardan parchalar deyarli rangtasvir asarning yaxshi qabul qilish imkoniyatini bera oladi. (O`quv diafilmlari, oq-qora tasvirdagi kinofilmlarda tasviriy materiallar ko`p berilgan bo`ladi va bu ularni mavzu bilan birinchi bor tanishtirishda qiyinchilik tuғdirishi mumkin). Agarda rangli ekran qo`llanmalari bo`lmasa, qanday D.N.Nikiforov albomidagi tablitsalardan foydalaniladi. Mavzuni uyda mustaxkamlash va takrorlash uchun darslik bezaklari beriladi. Kinofilmlar esa kelgusi darslarda parchalarda bo`lsa ham qo`llanilishi mumkin. Unda o`quvchilar o`zlari uchun yangi bo`lgan tomonlarni anglay olishlari kerak. Ekran ko`rsatmaliligining o`qituvchi uchun eng qulayi bu diafilm va diapozitivlardir.

Tarixiy vaqealarni qamrab olish, syujetlarning har xilligi bo`yicha, tasviriy materiallarga boyligi bilan boshqalardan ustun turadi. Diapozitivlarni ko`rsatish izchilligini o`qituvchining o`zi aniqlab beradi. Kadrlarga tayanib o`qituvchi hikoya qilishi, tushuntirishi va suhbat o`tkazishi mumkin. Agar texnik imkoniyatlar bo`lsa ekranda ikkita kadrni ko`rsatish mumkin. Bunda masalan, taqqoslash uchun, o`zgarishlarni aniqlash uchun kerak bo`ladi, aytaylik shaharlarning ko`rinishida, mehnat kurslaridagi har xil tarixiy davrlardagi o`zgarishlar va hokazolarni ko`rsatish mumkin bo`ladi. Maktab amaliyotida kodoskoplardan foydalaniladi. U ekranda yoki sinf doskasida matnlarni, sxematik rasm, chizma, diagrammani ko`rsatishda qo`llaniladi. SHuningdek, kodoskop bilan ishlashda xonani qoron’ilatmoq talab qilinmaydi. Bu o`quvchilarning materialni nafaqat ko`rishlarini balki matnlardan kerakli joylarini daftarlariga yozib olishlariga ham imkon beradi. O`qituvchi ham o`quvchilar bilan aloqani yo`qotmaydi. Teleeshittirishlar, kinofilmlar qisqa vaqt ichida keng ma’lumot bera oladi. Ular orqali tarixiy voqealar qatnashchilarining (aktyorlar ijrosida) jonli ovozini eshita oladi. Teleko`rsatuvlar filmlarga nisbatan dolzarblikga ega. Ular orqali ayniqsa o`quvchilar yaqin vaqtlardagi voqealar bilan tanishib boradi. Bularga nisbatan filmlarni ishlashning o`ziga ancha vaqt ketadi. Kinofilmni o`quvchilarga ko`rsatishdan oldin, o`qituvchining o`zi uni sinchiklab ko`rib chiqishi va o`rganishi lozim. Tarix o`qitish tajribasida o`quv filmlaridan foydalanishning bir qancha usullari bor:

a) o`qituvchi o`z bayonini o`quv filmining eng muhim va yorqin sahifalarini ko`rsatish bilan boғlab olib boradi;

b) 10-15 minutda qisqa o`quv filmlariga bag’ishlab dars o`tkaziladi;

v) maxsus kino darslari tashkil etiladi.

Hozirgi vaqtda O`zbekiston xalqlari tarixi va boshqa fanlarni o`qitishda teleeshitirishlarning ikki xilidan foydalanilmoqda:

1) sinfda qabul qilish uchun beriladigan ertalabki teleko`rsatuvlar

2) o`qishdan tashqari vaqtdagi teleko`rsatuvlar

O`quv teleko`rsatuvlarini qabul qilish uchun maxsus tarix xonasi bo`lishi kerak. Tarix darsida o`quv teleko`rsatuvlarining ikki xil turi qabul qilinadi:

a) 15 minutlik teleko`rsatuv

b) 30-40 minut davom etadigan yangi materialni bayon qilishga baғishlangan mavzuli teledars yoki takrorlash darsi (Sa'diev A. Maktabda tarix o`qitish metodikasi.T., 1999, 192-bet).

O`qituvchi darsda kinoparcha yoki teleko`rsatuvni ko`rsatganda, ularning bilim berish jarayonidagi vazifasini aniq bilish kerak bo`ladi. Murakkab va ma'suliyatlisi, bu kinofilm, teleko`rsatuvlarni mavzu bo`yicha asosiy bilim manbai sifatida qabul qilish ya'ni amalda buni tele .ya'ni kinodars deb atashadi. Bunga o`qituvchi ham o`quvchilar ham e'tiborsiz qaramasligi kerak va u katta tayyorgarlikni talab qiladi. Dars oldidan o`quvchilarni ekrandan qanday ma'lumot olishlari kerakligini aytib, tushuntiriladi. Unda film (ko`rsatuv) ko`rish paytida bajarishlari lozim bo`lgan topshiriqlar berish mumkin. Bunga film bo`yicha savollar, reja tuzish (ular doskaga yozib qo`yiladi) kiradi. Film ko`rish paytida bunday topshiriqlar ko`pincha yuqori sinf o`quvchilariga beriladi, o`qituvchi muhim kadrlar paytida o`quvchilarning e'tiborini jalb qilib, tanish bo`lmagan terminlarga, geografik atamalarga aniqlik beradi, ismlar, sanalar doskaga yozib qo`iyladi. SHuningdek, teleekran tarix o`qitishda ko`rsatmalilikning samaradorligini yanada oshiradi. Tarix o`qitish tajribasi tele dars g`oyaviy-tarbiyaviy va didaktik jihatdan boshqa ko`rsatmali vositalardan ko`ra ancha qulay va afzal ekanligini isbotladi.

**"Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash"** Kichik guruhlarda ishlashning samarali metodi - bu nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. o`quvchilarning zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustahkamlash yoki tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinf 4 - 5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo`linadi. Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbomlar, byulletenlar olishadi.

Zaruriy materiallar: A I Formatli oq qoғoz, qaychi, elim.

Topshiriqlar:

O`quvchilar 5 guruhga bo`linishadi va har bir guruhga tegishli topshiriq beriladi.

*1 guruhga topshiriq:* "Ma’naviyat – kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui" degan ta’rifning mazmunini izohlang.

*2 guruhga topshiriq:* "Ma’naviyat deganda, avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan kuchni tasavvur qilaman", degan fikrning mazmunini izohlang.

*3 guruhga topshiriq:* "Hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo`layotgan kurashlar hamma narsani hal qiladi", degan so`zlarning mazmun mohiyatini izohlab bering.

*4 guruhga topshiriq:* Individual ong, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiyaning mazmunini tushuntirib bering.

*5 guruhga topshiriq:* "Mafkura" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering.

Har bir guruh o`ziga berilgan topshiriqni bajarib bo`lganidan so`ng, ularning har biri o`z javoblarini butun auditoriyaga havola qilishadi. Bunda topshiriqni aniq va to`g’ri yechgan, faollik ko`rsatgan guruhni va alohida faol o`quvchilarni rag’batlantirish maqsadga muvofiq.

Bu metodni qo`llash davomida o`quvchilardan barcha materiallar yig’ib olinadi, aksincha o`quvchilar gazetalardagi boshqa qiziqarli maqolalarni o`qishga kirishib ketadilar va sardorlar fikrlariga quloq solmaydilar. o`quvchilardan ehtiyot bo`lib ishlash talab etiladi, ortiqcha qog’oz qirqish, yelimlash, sinfni ifloslantirishga yo`l qo`yilmaydi.

**“ Debatlar ”** Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o`quvchi o`zgalarni o`z yondashuvining to`g’riligiga ishontirishdir. O`z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun

esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko`nikmalarini shakllantirishda debatlar o`tkazish samarali metod hisoblanadi.

Ular o`quvchilarda ijtimoiy fikrni o`zgartirishga ta’sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg’ularini rivojlantiradi.

Metodik tavsiyalar: Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o`quvchilarga sharoit tug’diriladi. Buning uchun esa mavzuni *rezolyutsiya* shaklida ifodalash kerak bo`ladi. Ma’lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o`zgartirishni talab etadi. Misol uchun, “qabul qilingan: AQSH *Oliy sudi oliy jazoning nokonstitutsiyaviyliligini tan oldi”.*

Mashg’ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi.

Debatda qatnashish uchun iqtidorli o`quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo`llab  quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarni o`tkazish qoidasini chuqur o`zlashtirgan bo`lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi  yordamchini tayinlaydi.

“Konstruktiv argumentlar” (35ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o`quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko`lamini anglash va bahsda o`z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq, mantiqiy argumentlar tayyorlashda o`qituvchi yordam berishi kerak. SHu bilan birgalikda o`quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo`lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko`rishlari lozim.

Bahslashuv natijasida o`quvchilar nimalarni qo`lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to`g’risida gapirish mumkin.

O`quvchilarni shunday dalil  isbot topish ko`nikmalarini egallashga o`rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o`rin qolmasin. SHundagina o`quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o`rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko`nikmalari shakllana boradi.

Debatlarni o`tkazish tartibi:

1.O`qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. Qulay bo`lishi uchun rezolyutsiyani qo`llab quvvatlaydiganlar o`qituvchining o`ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashishgani ma'qul.

2.O`qituvchi qisqacha muhokama mavzusini va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so`zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.

3.O`qituvi dastlab rezolyutsiyani qo`llaydiganlarning birinchisiga so`z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilish so`raladi. Iloji bo`lsa so`zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a'zolari uchun oldindan belgilash kerak. O`qituvchining yordamchisi gapiruvchi uchun ajratilgan vaqtning tugaganligini eslatib turadi.

4.O`qituvchi rezolyutsiyani qo`llaydigan guruh o`quvchilarini birinchisiga so`z beradi va u o`z fikrini yetarlicha argumentlar yordamida asoslab beradi.

5.O`qituvchi birinchi guruhning ikkinchi raqamli o`quvchisiga so`z beradi, so`ngra ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o`quvchisi o`z fikrlarini rezolyutsiya bo`yicha bayon qiladi. SHu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.

6.Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishga imkoniyat tug'diriladi.

7. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin emas. Bahsni har doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.

8. O`quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi. O'qituvchi bu sabablarni sinf doskasiga yozib borishi ham mumkin. O'quvchilar bu sabablarga tegishli savollarga javob berishlari ham mumkin, biroq o`z mavqeining to`g'riligini oqlashga kirishib ketmasliklari kerak.

9. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko`rsatishi kerakki, birinchidan ularning qarashlari muammo yechimiga zid ham bo`lishi mumkin, ikkinchidan,barchani o`ylashga majbur etsin, uchinchidan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.

10. Debat dars so`ngida o`quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashishi kerak. SHuningdek, har ikki tomondan o`rtaga tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

“Tanqidiy fikrlash” VAZIFASI. Demokratik jamiyatda har bir fuqaro o`z oldida turgan muammolarni oqilona yechish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. SHu boisdan o`quvchilarni darslarda ko`proq bahsli tortishuvlarga sabab bo`ladigan muammolar yechimini topishga jalb etish lozim.

Bahsli savollarni yechish jarayonida o`quvchilarda tinglash, muloqat olib borish, turlicha fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi xislatlar shakllana boradi, masalalarni yechish va tegishli hukm chiqarish, analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ma’lum ketma - ketlikda tafakkur yurgizish, to`g’ri yechimlarni topish malakalari o`zlashtiriladi.

**O`tkazish usuli.** Munozarali savollarni analitik sintetik tahlil qilish va ob’ektiv fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantirish uchun talaygina metodika mavjud. Ro`y berayotgan voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo`lishi mumkin:

1.O`quvchining o`z fikrini erkin ifodalashi.

O’quvchiga yechimini topish uchun taklif etilgan muammo bo`yicha o`z o`rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Misol uchun, Toshkentda 16 fevral voqealari nima uchun sodir bo`lganligi to`g’risida. Muammoga o`quvchidan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikring qanday? Bu haqda sen nimalarni o`ylaysan? va boshqa.

2.O`z fikrini oydinlashtirish.

O`quvchilarning bildirgan fikrlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ularga qo`shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O`z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani?

3.O`quvchilarning fikrlarini asoslanganligini tekshirish.

Bu yerda quyidagicha savollarning berilishi o`rinlidir: Nima uchun sen aynan shunday deb o`ylaysan? Sening mavqeingni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima

uchun senda shunday taassurot tug'ildi? Qanday argumentlarni bildirgan fikring foydasiga keltirasan? Sening fikringni nima isbotlaydi? va hokazo.

4.Boshqalar fikrini o`rganish.

Inson o`z fikrining ojizligini har doim ham tan olavermaydi va suhbatdoshining fikriga hurmat va ehtirom bilan qarayvermaydi. Ayniqsa bu holatni ko`proq o`smirlarda kuzatish mumkin. SHubhasiz, ko`p hollarda buning aksini ham ko`rish mumkin. SHu bilan birgalikda qator murakkab muammolarning yechimini topishda o`zgalar fikrini eshitish va tinglash ko`nikmasi juda asqotadi. Bu ko`nikmani o`quvchilarda shakllantirishni xohlasangiz, marhamat, quyidagi savollar bilan murojaat qiling: o`z fikringizga muqobil bo`lgan holatni bayon qila olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deyisni mumkin? Tanqidga uchrashingiz mumkinmi?

5.O`z holatini va o`zgalar fikrini tahlil etish.

Bu haqda nafaqat o`smirlar, balki kattalar ham ko`pincha o`ylashmaydilar. o`quvchi xususiy fikri bilan to`g'ri kelmaydigan fikrlarni ham o`zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama  qarshiligini tahlil etishi kerak. SHu maqsad uchun quyidagi savollar asqotishi mumkin: o`z fikring ojizligi nimada? Qarshi tomonning dalil  isboti nima uchun kuchli yoki nima uchun kuchsiz? Qanday fikrlar sizning mavqeingizni mustahkamlaydi yoki uni kuchsizlantiradi?

O`rganilayotgan muammo bo`yicha har ikkala fikrlarning mantiqiy oqibatlarini o`rganish uchun savollar: agar sizning  g`oyangiz qabul qilinsa, nimalar ro`y berishi mumkin? Bu jamiyatga qanday ta'sir ko`rsatadi? Uning natijasi kelajakka foyda beradimi?

6. Muammo bo`yicha yechim qabul qilish.

Bu "tanqidiy fikrlash" metodining so`ngi bosqichi hisoblanib, o`quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo`ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo`ygan bo`lardingiz va hokazo.

Bu metodlardan didaktik jarayonning qaysi bosqichida foydalanish kerak? SHubhasiz, mavjudlik algoritmida (MA) o`quvchilarning o`quv bilish faoliyatini tashkil etishda mustaqil o`z o`zini (sinfdoshin ) o`qitishda, yakka tartibda, kichik

**"FSI"**

YAngi mavzuni mustahkamlash uchun o`quvchilarning o`z shaxsiy fikrlarini asoslab berishlari, ya'ni "FSI" texnologiyasi taklif qilinadi. Buning uchun har bir guruhga uchtadan qog'oz varaqlari beriladi. Ularning birining o`ng yoki chap burchagiga F, ikkinchisiga S, uchinchisiga I harflari yozilgan bo`ladi. Bunda:

F o`z *fikringni* bayon qil;

S nima uchun shunday fikrda ekanligingga biron bir *sabab* keltir;

| | |
|---|---|
| **F**<br>**FIKR** | *Har bir kishi o`z hatti harakati uchun shaxsan javobgardir.* |
| **S**<br>**SABAB** | *Bu fikrni shuning uchun keltirdimki, men bir kishi qilgan ish uchun bir necha kishini jazolanganiga guvoh bo`lganman (Misollar yoki vaziyat tushuntirib berilishi mumkin).* |
| **I**<br>**IZOH** | *Javobgar kishi jazolansa adolat g`alaba qiladi.* |

I misol bilan keltirilgan sababni *izohla* degan ma'noni bildiradi.

Masalan:

**"Fikrlarning shiddatli hujumi"** metodi. Mazkur metod E.A. Aleksandrov tomonidan asoslangan,G.YA.Bugi tomonidan qayta ishlangan.Ushbu metodning mohiyati guruhda muyaan topshiriqlarni bajaruvchi o`quvchi yoki talabaning fikrini va mulohaza imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishga ko`maklashadi. O`quvchi yoki talaba o`rtaga tashlangan fikrga qarshi o`z g`oyasi va munosabatini bildirishi, maqsadini yuzaga chiqarishi mumkin.Mashg`ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ruhiy jihatdan munosabatlari yaqin, son jihatdan teng bo`lgan talabalarni o`zida biriktirgan kichik guruhlarlarni shakllantiradi. Guruhlarga topshirilgan vazifa yoki topshiriqlarning mohiyati,maqsadlarini aniqlash va atroflicha o`rganish.Guruh a'zolarining muayyan g`oyalarini tahlil qilib bergan topshiriqlarning natijalarini yechish,hal etish.Topshiriqlar yechimlarini qayta

turkumlashtirish,yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq ravshanligini bayon etish va ma'lum mezonlar asosida baholash.

**6x6x6 metodi** guruhlarning har bir a'zosini faollik,o`z fikrini ifoda etish,guruhdoshlarining fikrlarini tinglash va tanlay olish,o`rtaga tashlanayotgan bir necha fikrlarni umumlashtira olish, shuningdek, o`z fikrini himoya qilishga o`rgatadi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o`quvchidan iborat bo`lgan bir necha guruhlarda ham qo`llash mumkin.

Ushbu metod yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi.

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlaninshi oldidan 6 tadan stul qo`yib chiqadi.

2. O`quvchilar mashg`ulot boshlanishida 6 ta guruhga bo`linadi.

3. Ta'lim oluvchilar joylashib olganlaridan so`ng o`qituvshi mashg`ulot mavzusini e`lon qiladi. Hamda guruhlarga muayyan topshiriq yuklanadi.

4. O`qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi,kerakli maslahatlar beradi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqtni hoyasiga yetgach,o`qituvchi guruhlarni qayta shakllantiradi.

**"Aqliy hujum" metodi** muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo`llaniladigan metod sanalib, mashg`ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishidir.Shuningdek, o`z tasavvurlari va g`oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko`nikma hamda malakalarni hosil qiladi.

**Klaster** metodi pedagogik,didaktik ta'limning muayyan shakli bo`lib,u o`quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin,ochiq o`ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.Mazkur metod turli g`oyalar o`rtasidagi o`zaro aloqalar to`g`risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmalarni aniqlashni talab etadi.

Klaster metodi puxta o`ylangan taktika bo`lib, undan o`quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg`ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.Sinf o`quvchilari asosida tashkil etilayotgan mashg`ulotlar

guruh a’zolari tomonidan bildirilayotgan g`oyalarning majmuasi tarzida namoyon bo`ladi.

Klaster metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Nimani o`ylayotgan bo`lsangiz, shuni qog`ozga yozing.Fikringizning to`g`riligi yoki sifati to`g`risida o`ylab o`tirmay,ularni shunchaki yozib boring.

2. Yozuvning orfografiyasi,punktuatsiyasi yoki boshqa jihatlariga e`tibor bermang.

3. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to`xtamang.Agar ma’lum muddatda biror bir g`oyani o`ylay olmasangiz, u holda biror narsaning rasmini, tasvir yoki shakllar chiza boshlang. Bu harakatni yangi g`oya tug`ilguncha davom eting.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko`proq yangi g`oyalarni ilgari surib,mazkur g`oyalar o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik va bog`liqlikni ko`rsatishga harakat qiling.

**Diagramma vena** qiyosiy tahlilda juda qo`l kelib, mavzuni sharhlab,ikki muammoni bir-biriga muqoyasa qilib o`tishda qulay usuldir.Bu usul talabalarni hushyorlikka sezgirlikka chorlaydi.O`quvchilar 4-5tadan uch guruhga ,jami 15 taga ajratiladi.1-guruh doiraning o`ng tomoni,2-guruh doiraning chap tomoni, 3- guruhi ikki doiraning qo`shilishidan paydo bo`lgan bo`shliq ustida ishlaydi.Guruhdagi qolgan o`quvchilar esa kuzatuvchilar (ekspertlar)dir.

**“Skarabey” metodi** interaktiv texnologiya bo`lib, u o`quvchilarda fikriy bogliklik, mantiq, xotiraning rivolanishiga imkoniyat yaratadi. Qandaydir muammoni hal qilishda o`z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o`quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o`rganilayotgan mavzo` haqidagi tushuncha va tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu metodni o`quv fanlarining katta bloki, bo`limi o`rganib bo`lgandan keyin u yoki bu muammo yuzasidan fikrlarni aniqlashtirish maqsadida qo`llash mumkin.

Ushbu metod yordamida mashg’ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi.

***1-bosqich***. Sinfning qarama- qarshi burchaklariga bir-birini inkor etadigan, ammo  mavzusi bir xil bo`lgan plakatlar osib ko`yiladi.Birinchi plakatda «qarshi emasman, roziman», ikkinchi plakatda esa «qarshiman, noroziman» degan yozuvlar bo`lishi kerak.

***2-bosqich***.Darsni o`tkazish tartibi doskaga osib qo`yiladi va muhokama qilinadi.

***3-bosqich***.Qarama-qarshi burchaklardan plakatlar oldiga o`quvchilar o`z nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda borib ikkita guruhga bo`linib oladilar.Guruhlardagi o`quvchilar soni nechtaligi ahamiyatli emas.

***4-bosqich***. Guruhlarga birikkan o`quvchilar o`zlari to`gri deb hisoblagan fikrni asosli ekanligini isbotlash uchun tayyorlanadilar.

***5-bosqich***. Guruh vakillari o`z fikrlarini isbotlash uchun ochiq munozaraga kirishadilar. Ikkala guruh vakillari qarama-qarshi mavzular yuzasidan eng ishonchli, asosli dalillarni keltirishlari darkor.

***6-bosqich.*** O`qituvchi  o`quvchilar faoliyatini baholaydi,  mashgulotga yakun yasaydi.

**“Bumerang”** texnologiyasi-ushbu texnologiya o`quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtlarda turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o`rganilgan materialni yodda saqlash, so`zlab berish, fikrini erkin bayon etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgandir.Darsni bunday tashkil qilinishi bir dars davomida barcha o`quvchilarni baholash imkoniyatini beradi.

**1-bosqich**.O`qituvchi guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil o`rganish, fikrlash uchun alohida-alohida yozma tarqatma material beradi.

Izox. Tarqatma material o`qituchi tomonidan bitta umuiy mavzu asosida tayyorlanishi mumkin,ya’ni mavzu 4 yoki 6 ta kichik bo`limlarga bo`lib tahlil qilinadi.

**2-bosqich**. O`qituvchi berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda mustaqil o`rganishlari, mazmunini esda saqlab qolishlari, keyinchalik o`qituvchiga yoki boshqa o`quvchilarga gapirib berishlari, tahlil qilishlari kerakligini uqtiradi.

Izoh.Tayyorgarlik uchun o`qituvchi 10-15 daqiqa vaqt beradi va o`zi o`quvchilar faoliyatini kuzatib boradi

**3-bosqich**.O`qituvchi oldindan raqamlar yozib tayyorlab qo`yilgan qog`ozlarni olib o`quvchilar oldiga keladi va guruh a'zolarining har biridan bittadan raqam tortib olishlarini so`raydi(1,2,3,..). O`qituvchi raqamlar bo`yicha o`quvchilardan yangi guruhlarni tuzadi.

Izoh. Hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamini olganlar yana bir yangi guruhga birlashadilar va hakazo.

**4-bosqich**.Raqamlar bo`yicha yangi guruhlar tuzilganda avvalgi guruhlardan bittadan vakil to`planib qoladi.

Izoh. Yangi tuzilgan guruhning xar bir a'zosi endi o`ziga 2 ta vazifani, ya'ni o`qituvchi va o`quvchi vazifasini oladi. O`qituvchi sifatida avval o`rgangan materialini boshqalarga tushuntiradi.O`quvchi sifatida esa guruh a'zolarining navbatma-navbat tushuntirayotgan matnlarini eshitadi, fikrlaydi. Bunda o`qituvchi mavzuning qiyin-osonligiga qarab vaqt ajratadi.

**5-bosqich**.O`qituvchi hammani yana mashgulot boshlanishidagi guruhlarga qaytishlarini so`raydi.

**6-bosqich**.O`quvchilarga tarqatilgan barcha materialning qay darajada o`zlashtirilganligini aniqlash maqsadida savollar bilan murojaat qiladi va javoblarni reyting ballari orqali baholaydi.

Izoh. Baholarni belgilab hisoblab borish uchun har bir guruh o`z hisobchisini tayinlashi mumkin.

**FSMU-** Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o`tkazishda, shuningdek, o`quv rejasi asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin.Bu texnologiya o`quvchilarni o`z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga tasdiqlashga, ochiq holda bahslashishga o`rgatadi.Shu bilan birga o`quvchilarni o`quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, o`zlashtirish darajalarini baholashga o`rgatadi.

**1-bosqich**. O`qituvchi o`quvchilarga mashg`ulot davomida muhokama qilinishi lozim bo`lgan muammoni bayon qiladi.

Izoh-o`qituvchi o`quv mashgo`lotida har bir tinglovchi avval yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borishi va nihoyat, dars oxirida jamoa bo`lib ishlashi haqida tinglovchilarga tushuntirish beradi.

**2-bosqich**. Har bir o`quvchiga yoki kichik jamoa a’zolariga FSMU texnologiyasining **4** bosqichi yozilgan qog`ozlar tarqatiladi.

- **F-**fikringizni bayon eting.
- **S-** fikringiz bayoniga sabab ko`rsating.
- **M-** ko`rsatgan sababingizni isbotlab, misol keltiring.
- **U-** fikringizni umumlashtiring.

Izoh:Har bir o`quvchi yakka tartibda yoki kichik jamoalarga birlashgan holda tarqatilgan qogozlarga **FSMU** ning 4 bosqichini yozma bayon etgan holda to`ldiradi.

**3- bosqich**: kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o`zi yozgan har bir fikr bilan guruhning boshqa a’zolarini tanishtirib o`tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o`rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadilar

Izoh.Guruh a’zolari **FSMU**ning 4 bosqichini har biri bo`yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko`radilar. Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o`z fikrini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

**“Blits-uyin” texnologiyasi**

Ushbu texnoligiya talabalarni harakatlar ketma-ketligini to’g’ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o’rganayotgan predmeti asosida ko’p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o’rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida talabalar o’zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o’tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to’liq sharoit yaratib beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o’tkaziladi:

1-bosqich.

- O’qituvchi dars mashg’ulotining strukturasi haqida, mashg’ulotning bir necha bosqichda o’tkazilishi haqida talabalarga ma’lumot beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarilishiga aniq vaqt berilishi, talabalar esa berilgan vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- O’qituvchi hamma talabalarga alohida-alohida tarqatma material beradi va talabalardan uni sinchiklab o’rganishlarini so’raydi;
- O’qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan harakatlarni ketma-ketligini to’g’ri belgilash kerakligi, belgini esa qog’ozdagi alohida ajratilgan bo’limga raqamlar bilan qo’yish kerakligini tushuntiradi;
- Qo’yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi;

2-bosqich.

- O’qituvchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, talabalarda qiyinchilik tug’ilsa yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;
- Har bir talaba tarqatma materialdagi “YAKKA BAHO” bo’limiga shu yerda berilgan harakatlardan o’zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya’ni berilgan harakatlardan uning fikricha qaysi biri birinchi bo’lishi, qaysi esa ikkinchi bo’lishini va hakozo. Bu vaz. Bu vazifani bajarish uchun o’qituvchi taxminan 10 daqiqa vaqt ajratadi.

3-bosqich.

- O’qituvchi talabalardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishlarini so’raydi. Guruhlar talabalarning hoxishlariga qarab yoki raqamlar bo’yicha tashkil etilishi mumkin.
- Kichik guruhlardagi talabalarning har biri o’z qog’ozidagi yakka baho bo’limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar. Keyin 3 kishida 3 xil bo’lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta’sir o’tkazib, o’z fikrlariga ishontirib, kelishgan holda bir qarorga kelib, o’zlariga tarqatilgan qog’ozdagi “GURUH BAHOSI” BO’LIMIGA raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

• O’qituvchi kichik guruhlardagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir talaba faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4-bosqich.

• Barcha kichik guruhlar o’z ishlarini tugatgach, o’qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo’yicha to’g’ri javobni e’lon qiladi, ya’ni talabalardan ularga tarqatilgan qog’ozlardan “TO’G’RI JAVOB” bo’limini topishni va unga o’qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so’raydi.

5-bosqich.

• O’qituvchi “TO’G’RI JAVOB” bo’limida berilgan raqamlardan “YAKKA BAHO” bo’limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), kattadan kichikni ayirgan holda “YAKKA XATO” bo’limiga chiqqan farqni yozishni so’raydi. “YAKKA BAHO” bo’limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qoshib chiqib, umumiy natijani hisoblashlari kerakligi uqtiradi.

6-bosqich.

• Xuddi shu tartibda “TO’G’RI JAVOB” va “GURUH BAHOSI” o’rtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni “GURUH XATOSI” bo’limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo’shiladi va umumiy son kelib chiqadi.

7-bosqich.

• O’qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo’yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

Ushbu texnologiya oraliq va yakuniy nazoratlarda qo’llanilsa yaxshi natija beradi deb o’ylaymiz.

Texnologiyada baholash tartibi quydagicha:

Talabalarning javoblari o’qituvchi tomonidan berilgan “TO’G’RI JAVOB”ning yarmidan ko’piga to’g’ri kelsa, demak “qoniqarli”, 75% to’g’ri kelsa “yaxshi”, 100% to’g’ri kelgan bo’lsa “a’lo” deb belgilash mumkin.

**Loyihalar texnologiyasi:** Ta’lim jarayonida loyihalar texnologiyasi deganda birgalikda rejalashtirilgan va ongli tarzda birga harakat qiladigan,

telekomunikatsion texnologiyalar negizida tashkil qilingan, umumiy muammo yoki o`rganilayotgan mavzuni tadqiq qilish uchun umumiy maqsadga, harakat metodlariga ega bo`lgan o`quv hamkorlik tushiniladi.

Loyiha - bu aniq bir muammoni tadqiq qilish, uni amaliy va nazariy jihatdan tadbiq etish .

Loyihaning tashkiliy qismlari quyidagilardir:

- Maqsadni aniqlash (nimani va nima uchun qilish kerak )
- loyihani amalga oshirish yo`llarini ishlab chiqish
- loyiha ustida ishlash
- natijalarni rasmiylashtirish
- natijalrni tahlil qilish

Tadqiqotlar yoki loyihalar texnologiyasining maqsadi o`quvchini mustaqil bilim olish faolligini rivojlantirishdir. O`quvchi o`zining mustaqil ijodiy va amaliy faoliyati tufayli yangi bilim va ko`nikmalar shaklidagi amaliy natijalarga ega bo`ladilar.

# XULOSA

Bugun biz yashayotgan zamon shiddat bilan rivojlanayotgan, axborot olish va axborotlar kurashi ketayotgan zamondir. Bu o`zgarishlarga tezlik bilan moslashish, zamon shiddatidan orqada qolmaslik uchun bizga bugun mustaqil fikrlaydigan, tez va to`g`ri qaror qabul qila oladigan, o`z oldiga maqsad qo`yib, unga erishish yo`llarini ishlab chiqa oladigan, yo`lda uchragan muammolarni hal qila oladigan, chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo’lgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini to`liq o`zlashtirgan avlod zarur. Faqat shunday ko`nikmalarga ega bo`lgan avlodgina davlatimizni dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqa oladi.

Bugungi kun ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham aynan ana shu maqsadlarni ro`yobga chiqarishga qaratilgandir. Bugungi kun pedagoglari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ta’limda nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, olingan bilimlarni hayotda amalda qo`llash ko`nikmasini shakllantirishdir. Bola maktabdami, o`rta maxsus ta’lim tizimidami yoki oily ta`limdami olayotgan bilimlari hayotiy ekanligini va ularni amalda qo`llash hayotiy vaziyatlarda, muammolar yechimida qo`l kelishiga, o`rganilayotgan fanlar faqat nazariy bilim emas, balki, hayotning, kasbiy faoliyatning ajralmas qismi ekanligini his qilishi zarur. Ta`limning ana shunday tashkil etilishi zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama komil avlodni tarbiyalayalsh imkoniyatini beradi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda BMIda “Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari” mavzusini o`rta maxsus ta’lim tizimida o`qitish metodlari o`rganildi.

BMIning 1-bobida ““Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari”” mavzusiga qo`yilgan DTS talablari va mavzuning darslikda yoritilishi masalalari yoritildi.

BMIning 2-bobida “Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillardagi asosiy janglari” mavzusini o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi darsning bir soatli ishlanmasi ishlab chiqildi va umumta’lim maktab tizimida jahon

tarixi darslarini o`qitishda tadqiqotlar texnologiyasi va uning dars samaradorligini oshirishdagi mohiyati ochib berildi.

BMI ni yozish jarayonida mavzu bo`yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- Bugungi kunda o`rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida tarix fanini o`qitish uchun barcha me’yoriy hujjatlar , DTS mavjud;

- Bugungi kunda akademik litseylarda tarix fani chuqurlashtirib o`qitiladigan yo`nalishlar uchun DTS talablariga javob beruvchi darsliklar yaratilmagan;

- O`qituvchi darsda o`rganiladigan har bir mavzu haqida o`quvchilarga darslikdan tashqari boshqa manbalardan foydalangan holda qo`shimcha ma’lumotlar berib borishi maqsadga muvofiq bo`ladi:

- O`qituvchi har bir dars mashg`ulotiga ijodiy yondoshishi va uni zamon talablariga mos holda tashkil qilishi kerak;

- Bugungi kunda davlatimiz ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zamonaviy ta’lim oldiga qo`yilgan talablarni bajarishga samarali yordam beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.


1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: «Ўзбекистон», 1992.
2. И.А.Каримов. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т.: 1992.
3. И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: 1992.
4. И.А.Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. Ўзбекистон, 1993.
5. И.А.Каримов. Ўзбекистон - бозор, муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. Т.: Ўзбекистон, 1993.
6. И.А.Каримов. Биздан озод ва обод Ватан қолсин Т.: Ўзбекистон, 1994.
7. И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. Т.: Ўзбекистон, 1995.
8. И.А.Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.: Ўзбекистон, 1995.
9. И.А.Каримов. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётнинг пойдевори. - Т.: «Шарқ», 1997.
10. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.; Ўзбек халқи давлатчилик тарихи концепцияси. Лойиҳа // O’zbekiston tarixi – Тошкент, 1999. – № 1. – Б. 31-34.

11. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни (Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори китобида. —Т.: «Шарқ», 1997, 20-29 - бетлар).
12. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури (Баркамол авлод -Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори китобида. - Т.: «Шарқ», 1997, 32-62-бетлар).
13. O`zbekistonning yangi tarixi. K.2. O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida\\ tuzuvchilar: M.Jo`rayev,P.Nurullin, S.Kamolov va boshq.;\-T.:”Sharq”,2000.-688 b
14. Abdullayev.T, Abdullayeva N. O`zbekiston tarixi (1917-1991 yillar) o`quv-uslubiy qo`llanma.Urganch – 2013. – 123 b/.
15. А.А.Абдуқодиров ва бошқ. Ахборот технологияларига оид атамаларнинг изоҳли луғати. -Т.: ТДПУ, 2002. -26 б.

16. Н.Н.Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик махорат.-Т.: ТДПУ. 2003.
17. Академик лицей ва касб-хунар коллежларида ўтказиладиган ритуаллар тизими (1-китоб). - Бобобеков Х.Н., Давлетшин М.Г., Ишмухдмедов Р.Ж. ва бошқ. - Т.: «Фан», 1999.
18. Академик лицей ва касб-хунар коллежларида ўтказиладиган удумлар ва асосий тадбирлар тизими (2-китоб). - Бобобеков Х.Н., Давлетшин М.Г., Ишмуҳамедов Р.Ж. ва бошқ.- Т.: «Фан», 2005.
19. Академик лицейларнинг ижтимоий-гуманитар фанлар ва хорижий филология йўналишидаги тармоқ таълим стандарти ва чуқурлаштирилган фанлар ўқув дастурлари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими маркази. Т.: 2005, 464-бет.
20. Аппарович Н. Полторак Д.И. Кабинет истории и обществоведения в школе. М.: 1982.
21. Бабанский Ю.К. Как активизировать процесс обучения. М., 1979
22. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари.Т., 1990
23. Гаффаров Я, Гафforова М. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш усуллари.Т., 1996.
24. Гора П.В. Повышение эффективности обучения истории в школе. М., 1988
25. Жаҳон тарихи фанидан академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари учун ўқув дастури.-Т.:2004.
26. Зверьев И.Д., Максимова В.А. Межпредметные связи в современной школе. М.,1991
27. Ишмуҳамедов Р.Ж. Болаларни тарбиялаш ва соғломлаштириш ишларида педагогик технология (ўзбек ва рус тилларида). - Т.: УДАП, 2004.
28. Ишмуҳамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.

29. Йўлдошев Ж.Г. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари. (еқуд ўқитувчи бўлиш оснми) Т., 1998
30. Йўлдошев Ж.Ғ. Ж.Ғ.Йўлдошев. Таълим янгиланиш йўлида.-Т.: Ўқитувчи. 2000.
31. Йўлдошев Ж.Ғ., С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари.-Т.: Ўқитувчи. 2004.
32. Йўлдошев Ж.Г. Янги педагогик технология: йўналишлари, муаммолари, ечимлари. «Халқ таълими», 1998. N4
33. Кабиров А, Коровкин Ф. Жаҳон тарихи.Т., 1995
34. Киршнер Л.А. Формирование познавательных возможностей учащихся..М.,1982
35. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах,- М.: Айрис-пресс, 2006.
36. Колеченко А.К. Энциклопедия педагогических технологий. Пособие для преподавателей. - СПб: КАРО, 2005.
37. Лафасов М., У.Жўраев. Жахон тарихи дарслиги.-Тошкент. 2005.
38. Лернер И.Я. Дидактическаие основы методов обучения. М., 1991
39. Лернер И.Я. Ўқитиш методларининг дидактик асослари.М.,1991
40. Махмутов М. Мактабда муаммоли таълимни ташкил қилиш.Т.,1991
41. Методика преподавания истории в средней школе.М.,1986
42. Мустақил Ўзбекистон-тарих силсилоларида.Т.,1992
43. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб. пособие для студ.пед.вузов и системы повыш.квалиф.пед.кадров /Под ред. Е.С.Полат.-М.: Издательский центр «Академия», 2005.
44. Поспелов Н., Поспелов И. Формирование мыслительной операции у старшеклассников. М., 1999
45. Саъдиев А. Мактабда тарих билимларининг ҳозирги аҳволи ва ўни ўқитишни миллий асосга қуриш.Т., 1993.
46. Саъдиев А. Ўзбекистон халқлар тарихини ўқитиш.Т., 1993.

47. Тарих ўқитиш методикаси фанидан маърузалар матни.-Т.: ТДПУ.
48. Ташпулатов Т. Гаффоров Я., Тарих ўқитиш методикаси Т., 2002.
49. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. - Т.: 2006.
50. Ўзбекистон тарихи фанидан академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари учун ўқув дастури.-Т.:2004.